

VI. TRANSPORT

2025- yil yanvar-iyun

1. Yuk tashish va yuk aylanmasi
2. Yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi
3. Uslubiy ma'lumotlar

1. Yuk tashish va yuk aylanmasi

2025- yil yanvar-iyun oylarida barcha transport turlari tomonidan **139,5 mln t** yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **110,0 %** ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida tashilgan yuk va yuk aylanmasi

	Tashilgan yuklar, ming t	2024- yilga nisbatan, % da	Yuk aylanmasi, ming t-km	2024- yilga nisbatan, % da
Viloyat bo'yicha:	139 520,1	110,0	1 190 329,1	108,3
shaharlar:				
Nurafshon	590,4	117,4	15 278,6	115,0
Olmaliq	83 890,1	104,2	413 839,0	106,8
Angren	25 768,8	116,3	134 252,4	112,6
Bekobod	3 155,6	121,3	55 339,7	107,7
Ohangaron	4 016,0	105,1	45 499,2	107,1
Chirchiq	1 545,7	130,5	46 128,5	106,1
Yangiyo'l	612,1	123,4	9 645,4	110,6
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	770,3	134,6	10 509,4	114,1
Ohangaron	982	128,8	11 854,9	111,1
Bekobod	2 088,1	117	34 719,7	113,9
Bo'stonliq	1 341,0	119,3	79 312,0	102,6
Bo'ka	796,5	119,3	15 442,3	105,8
Quyi Chirchiq	422,4	132,8	4 771,5	114,5
Zangiota	2 595,7	129,1	51 349,8	106,4
Yuqori Chirchiq	2 047,6	132,4	32 170,9	107,2
Qibray	2 010,8	139,6	33 783,0	103,7
Parkent	782,2	123,8	8 236,3	106,4
Piskent	747,9	139,1	8 871,4	103,2
O'rta Chirchiq	1 448,4	120	56 590,0	114,4
Chinoz	984,7	123,7	32 631,7	102,8
Yangiyo'l	2 156,5	133,6	71 071,5	119,0
Toshkent	767,3	132,7	19 031,9	101,3

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning yuk tashish hajmi 2025- yil yanvar-iyun oyida **101,3 %** ga teng bo'ldi va **11,0 mln t** ni tashkil qildi. Yuk tashishning umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi **7,9 %** ni tashkil etdi (2024- yil yanvar-iyunda yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi **8,5 %** ni tashkil etgan).

2025- yil yanvar-iyun oylarida yuk aylanmasi barcha transport turlari tomonidan **1 190,3 mln t-km** ni va o'sish sur'ati **108,3 %** ni tashkil etdi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning yuk aylanmasi 2025- yil yanvar-iyun oyida **100,1 %** ga teng bo'ldi va **250,4 mln t-km** ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi **21,0 %** ni tashkil etdi.

2. Yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

2025- yil yanvar-iyun oylarida barcha transport turlari tomonidan **404,4 mln** yo'lovchi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan **107,2 %** ni tashkil etdi.

	Tashilgan yo'lovchilar, ming yo'lovchi	2024- yilga nisbatan, % da	Yo'lovchi aylanmasi, ming yo'lovchi-km	2024- yilga nisbatan, % da
Viloyat bo'yicha:	404 398,9	107,2	9 584 796,7	102,4
shaharlar:				
Nurafshon	8 660,2	109,3	134 528,7	101,1
Olmaliq	23 929,8	122,8	563 522,1	101,6
Angren	20 083,8	102,5	914 254,5	101,0
Bekobod	9 395,6	108,4	345 384,5	101,9
Ohangaron	7 139,2	106,6	134 387,5	102,4
Chirchiq	55 467,2	100,4	723 679,6	108,4
Yangiyo'l	9 937,0	107,4	457 561,7	101,8
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	8 021,6	108,3	349 855,5	100,3
Ohangaron	9 140,1	106,5	198 471,7	101,6
Bekobod	13 905,2	107,4	472 411,1	100,6
Bo'stonliq	13 306,0	108,9	417 932,8	103,2
Bo'ka	12 264,8	106,8	403 688,1	102,9
Quyichirchiq	7 180,5	105,5	178 303,8	102,4
Zangiota	42 379,6	112,0	852 985,5	102,3
Yuqori Chirchiq	32 344,0	102,4	607 050,5	101,9
Qibray	22 740,5	111,9	728 263,4	103,5
Parkent	16 237,1	112,5	301 030,9	103,9
Piskent	11 008,7	105,4	138 382,9	101,9
O'rta Chirchiq	11 740,4	104,2	401 993,1	101,6
Chinoz	7 611,0	104,5	327 963,1	102,4
Yangiyo'l	47 143,8	107,4	611 962,5	101,1
Toshkent	14 762,8	107,2	321 183,2	101,3

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportida yo‘lovchi tashish hajmi 2025- yil yanvar-iyun oyida **107,3 %** ga teng bo‘ldi va **253,7 mln** yo‘lovchini tashkil qildi. Yo‘lovchi tashishning umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi **62,7 %** ni tashkil etdi (2024- yil yanvar-iyun oylarida yo‘lovchi tashishning umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi **62,7 %** ni tashkil etgan).

2025- yil yanvar-iyun oylarida barcha transport turlari tomonidan yo‘lovchi aylanmasi **9 584,8 mln yo‘lovchi-km** ni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **102,4 %** ga teng bo‘ldi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportida yo‘lovchi aylanmasi 2025- yil yanvar-iyun oyida **101,4 %** ga teng bo‘ldi va **6 758,8 mln yo‘lovchi-km** ni tashkil qildi. Yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi **70,5 %** ni tashkil etdi (2024- yil yanvar-iyun oylarida yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi **71,2 %** ni tashkil etgan).

3. Uslubiy ma’lumotlar

Transport statistikasi – transportda sodir bo‘ladigan hodisalar va jarayonlarni o‘rganadigan statistika sohasidir. Transport statistikasi ko‘rsatkichlari transportning alohida turlari bo‘yicha ma’lumotlarni: temir yo‘l, avtomobil, shahar elektr, quvur yo‘li va havo ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Yuk tashish (yuk tashish hajmi) – transport orqali tashilgan yuklarning tonnalaridagi miqdori (pullik bagaj va pochtani qo‘shgan holda). Ko‘rsatkich transport turlari, qatnov, yuk turlari bo‘yicha hisobga olinadi. Yuklarni tashish jarayonining dastlabki daqiqasi “jo‘natilgan yuklar (jo‘natish)” ko‘rsatkichi bilan aks ettiriladi, yakuniy nuqta – “kelib tushgan yuklar (kelib tushishi)” ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Tashilgan yo‘lovchilar – ma’lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar soni (*statistik kuzatuv birligi bo‘lib, yo‘lovchi-qatnovi hisoblanadi*).

Yo‘lovchi aylanmasi – transportning yo‘lovchi tashish bo‘yicha ish hajmi. O‘lchov birligi yo‘lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo‘yicha yo‘lovchilar sonini tashish masofasiga ko‘paytmasini yig‘indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo‘yicha alohida hisoblanadi.